

PSIXOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI VA MAVQEYI

Axmedova Moxira Muxamadovna

Toshkent viloyati Olmaliq shahar

22-umumiy o‘rta ta’lim maktab psixologi

Annotatsiya: Psixologik xizmat asoslari, psixologiya sohasidagi asosiy qonun va tamoyillardir. Ushbu asoslar, psixologik tadqiqotlarni amalga oshirish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, psixologik masalalarni yechish va psixologik ko'mak ko'rsatish jarayonida muhimdir.

Kalit so‘zi: Psixik taraqqiyot diagnostikasi; psixodiagnostika; eksperimental psixologiya; eksperiment (tajriba); simptomatik diagnoz; etiologik diagnoz; tipologik diagnoz.

Yigirma birinchi asrda inson omilining o‘rganilishi va tadqiq qilinishi bilan bog‘liq psixologik talablar birmuncha takomillashib bormoqda. Chunki inson tom ma’noda ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois, uning shakllanishi va shaxs sifati- da taraqqiyoti eng avvalo unga ta’sir etuvchi obyektiv va sub- yektiv olamning o‘ziga xos imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu imkoniyatlar tizimini o‘rganish va tadqiq qilish bugungi psixologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bolib qol- moqda. Borliqdagi narsa va hodisalardan zavqlanish, nafis his-tuyg‘ularga g‘arq bo'lish, atrof- muhit jozibasini chuqur his etish, insoniyat yaratgan mo‘jizalardan hayajonlanish, shaxslararo munosabatga kirishish me‘yorini bilish psixologiya fani tufayligina o ‘z yechimini topadi. O‘tmish zahmatlari-yu hozirgi davrning iliq nafasi, kelajak ezgu niyatlari-yu olam xayolati, ijodiy o ‘y-fikrlar, mantiqiy mulohazalar, mustahkam iroda, kuchli xarakter, yuksak aql-zakovat xususiyatlari va ularning o‘ziga xosligi — bularning barchasi psixologik tahlilning mahsulidir.

Shaxsning fazilatlarini, faoliyati, xulq-atvori, muomalasi, uning faollashuvi, ruhiy tushkunligi-yu shijoati, intiluvchanligi, mardligi, mehnatsevarligi, fidoyiligi, vatanparvarligi, e’tiqodi, dunyoqarashi, qiziqishining namoyon bo‘lishi va kechishi, rivojlanishi — bularning hammasi psixologik qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Insonning hodisalar, holatlar, vazifalar va shartsharoitlarga munosabati o ‘zini o ‘zi anglashda, o ‘zini o ‘zi baholashda, o'zini o ‘zi nazorat qilishda, o‘ziga o‘zi taskin hamda buyaiq berishda, o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda mujassamlashadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan o ‘zini o ‘zi anglashi, milliy o ‘ziga xoslik alomatlari, betakror nafosat egasi ekanligi, milliy didi (ta’bi) — bular milliy qiyofa yordami hamda milliy o ‘zini o ‘zi (o'zligini) anglashda pishib yetiladi. Milliy qiyofa, milliy xarakter, milliy ong, milliy xulq-atvor, milliy an ‘analar, marosimlar, rasm - rusum lar tavsifi, milliy yoki etnos (elat) psixologiyasi tuzilmasida

aks etadi. Oila a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar, ayol yoki erkaklar o'rta-sidagi muloqot, voyaga yetganlarning voyaga yetmagan yoshlar bilan o'zaro fikr almashuvi, birbirlariga ta'sir o'tkazishi, hamkorligi, hamdardligi, o'zaro yordam va o'zaro hurmati, omilkorligi, odilligi mohiyatan psixologiyada o'z ifodasini topadi.

Psixologiya fani inson psixikasini aniqlash, shakllantirish, yangi sharoitga ko'chirish, kamol toptirish, rivojlanish dinamikasini ta'minlash, yangi sifat bosqichiga o'tishini qayd qilish imkoniyati borligi bilan o'ta amaliy, tatbiqiy fanga aylangandir. Psixologiya fani sohalari uning amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi (huquqshunoslik psixologiyasi, klinik psixologiya, mehnat psixologiyasi, savdo psixologiyasi, sotsial psixologiya, pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya, sport psixologiyasi va hokazo). Psixologiya amaliy, tatbiqiy jihatdan o'z predmetiga ega bo'lib, amaliy sotsial psixolog, muhandis psixolog, oilaviy psixoterapevt, tibbiyot psixologi, maktab psixologi kabi sohalarni o'z ichiga qamrab olgandir. Psixologiya fani tabiatshunoslik fanlari va falsafa negizida paydo bo'lgan bo'lib, hanuzgacha uning na gumanitar, na tabiiy fanlar qatoriga kiritilishi aniqlangani yo'q, biroq shunga qaramay, uni har ikkala yo'nalishdagi sohalar bo'yicha to'plangan ma'lumotlar, qonuniyatlar birlashuvining mahsuli deb atash mumkin. Ammo psixologiyaning tarkibida ham gumanitar, ham ijtimoiy bilimlar mavjud bo'lishidan qat'i nazar, u alohida xususiyatga ega bo'lgan mustaqil fandır. Hayotiy psixologik bilimlarning ilmiy psixologik bilimlardan yana birfarqli tomoni shundan iboratki, ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar anglashilgan, mantiqiy puxta, oqilona xususiyatga ega bo'ladi. Ilmiy psixologik bilimlar esa faraz va g'oyalarni ilgari surish daqiqasidan boshlab shakllana boradi va ulardan kelib chiqadigan natijalarni mantiqan tekshirish bilan yakunlanadi. Shunda ham olg'a surilgan g'oyalar tekshirish jarayonida biron-bir tasdiq yoki inkor ma'nosiga erishsagina ilmiy psixologik bilimlar tizimiga kiritiladi Inson o'zining kimligini anglashga intilishdan, o'z ruhiy dunyosini va o'zgarlar ruhiyatini bilish istagi paydo bo'lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o'tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yurita boshlagandan buyon psixologiya fan sifatida rivojlana boshladi. Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsa-da, u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralibchiqdi. Psixologiyaning alohida fan sifatida ajralib chiqishiga o'sha davr kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zarurat taqozosi edi. Psixologik holatlarni tadqiq qilish, ya'ni psixikaning mohiyatini tushunish maqsadida o'sha davrlari eksperimental ilmiy psixologik laboratoriyalar vujudga kela boshladi. Bugungi kunga psixologiya fani va ona psixologik xizmatlar ko'pgina rivoj topti. Shaxsdagi ruhiy va intrapsixologik muammolar, oilaviy munosabatlardagi kichikkatta muammolarning oldini olish va hal qilish lozimligi ortib bormoqda. Psixologik masalalarni hal etish uchun psixolog-

konsultantlar soni va ularning kompetentsiyasi ham sonli ravishda ortib bormoqda. Shu bilan birga psixologik bilim doni ham kengayib bormoqda.

Psixologiya tarixida psixika va uning taraqqiyoti haqida turli-tuman fikrlar juda ham ko‘p. psixik hodisalarni materialistik nuqtai nazardan talqin qilishda mashhur grek faylasufi Aristotelning (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) xizmati kattadir. Aristotel qadimgi faylasuflardan birinchi bo‘lib psixologiyani alohida fan sifatida qaradi, psixik hodisalarga materialistik nuqtai nazardan yondashdi. Uning “Etika”, “Ritorika”, “Metafizika”, “Hayvonlar tarixi” kabi asarlarida turli psixik hodisalarga oid juda ko‘p fikrlar mavjud. Psixologiya bo‘yicha birinchi ilmiy asar Aristotelning “Ruh to‘g‘risida” traktati hisoblanadi. Pedagogik psixologiya esa ta‘lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi – shart-sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o‘qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta‘sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya 19- asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog‘liq. Pedagogning asosiy vazifasi bu kattalar va kichiklarga bilim, ta‘lim berish nafaqat o‘qitish balki ma‘naviyat, madaniyat va estetikani o‘rgatishdir. Pedagogika sohasini tanlagan har bir yosh avlod albatta psixologiya sohasini ham bilishlari shartdir. Chunki ba‘zi bolalar o‘qishini hohlashmaydi yoki o‘qimasdan darslarda jim o‘tirar balki dars vaqtida o‘qituvchining dars o‘tishiga halaqit qilib shovqin solib o‘tirar, bunday vaqtda bolalarning nima uchun bunday qilayotgani bilish maqsadida maktab psixologiga murojaat qilinadi. Agar pedagogning o‘zi o‘qituvchi bo‘lishiga qaramasdan psixologiya sohasida o‘qigan bo‘lsa o‘quvchilar nima uchun bunday qilayotganini dars davomida kuzatib bilib olishadi. Ya‘ni ular oddiygina kuzatish metodidan foydalanadilar, bazida esa o‘quvchilarga rasm chizdirib ularning ruhiy holatlarini bilib olishlari mumkin.

Psixologik xizmatlar asoslari fanining dolzarbligi shundan iboratki, u psixologiya fani va ustozlarga tayyorlangan talabalarga psixolog kim sifatida ishlash va yordam berishda qo‘llaniladigan asosiy kompetentsiyalarni beradi. Fan talabalarga psixik muammolar bilan ishlash usullari, terrorapiya texnologiyalari, psixodiagnostika, konsultatsiya va ma‘lumotlar bilan ishlash tizimini o‘rgatadi. Bundan tashqari talabalarga psixologik klinikani tashkil qilish va unda yoki muassasalarda ishlash ko‘nikmalarini beradi. Psixologiyaning dolzarbligi shundan iboratki, u bugungi psixologik xizmatlar emas, balki kelajakdagi psixologlar mutahassisligini rivojlantiradi. U talabalarga psixolog tasavvurida eng sodda bilimdoni bilan birgalikda psixolog kim sifatida ishlash uchun zarur o‘zlashtirish va amaliy kompetentsiyalarni beradi. Shu bilan psixologiya fani asosida yuksak malakali mutaxassislar rivoji yo‘lida muhim qadam qo‘yiladi. Psixologiyaning o‘quvchilarga beradigan mazmun, usul va

yondashuvlari kelajakda psixologik xizmatlar sohasidagi rivojning nufuzli talablarini hisobga olgan holda shakllanadi. U psixologiyani, psixologik xizmatni va psixolog mutahassisligini rivojlantirishga yo'naltirib, aholi salomatligiga va farovonligiga yaqin davrda e'lon etiladigan yangi talablarga javob berishi mumkin. Shunga ko'ra psixologik xizmatlar asoslari fanining dolzarbligi baholanadi.

Shuni xulosa qilib aytish kerakki yuqorida aytib o'tilganidek nafaqat pedagogika sohasiga balki boshqa sohalarga ham psixologiya sohasining kerak ekanligi hozirgi zamonda ayon bo'lib bormoqda. Pedagoglarga psixologiya o'quvchilarning ruhiy barqarorligi yoxud ruhiy buzilishlarini, inqiroz davridagi o'zgarishlarni aniqlashda kerak bo'lmoqda. Hozirgi kunda nafaqat kattalar balki yoshlar ham psixologlar yordamiga muhtoj bo'lib bormoqda. Demak, psixologiya sohasi hozirgi kunda eng ommalashgan va insonlar muhtoj bo'lgan soha hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aminov N.A. Bo'lajak maktab o'quvchilarining maxsus qobiliyatlari tarkibiy qismlari haqida psixologlar / N.A. Aminov, M.V. Molokanov // Psixologik jurnal. – № 5. – 1992. – 104–110-betlar.
2. Antonova N.V. Shaxsiy o'ziga xoslik muammosi // O'z-o'zini anglash psixologiyasi
3. Verbitskiy A.A. Kognitiv va kasbiy motivatsiyani shakllantirish talabalar / A.A. Verbitskiy, T.A. Platonov. – M.: Oliy maktab ilmiytadqiqot instituti, 1986. – 154 b.
4. Elizarov A.N. Ishonch telefoni: ota-ona bilan psixolog-maslahatchi sifatida ishlash ota-onalar va yoshlar mojarolari sharoitida mi // Psixologiya savollari. – 1995.
5. E.G',G'oziyev "Psixologiya" darslik;
6. P.I.Ivanov va M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" darslik
7. S. R. Mirzayeva, Sh. R. Samarova, O. U. Avlayev "Umumiy psixologiya" Toshkent-2022 "Yangi chirchiq book" 6,10-11 bet.
8. B. M. Umarov, M. M. Mirqosimova "Pedagogika va psixologiya" Toshkent-2019